

O‘ZBEK LEKSIKOGRAFIYASIDA ANTROPONIMLARNING O‘RGANILISHI VA TAHLILI

TerDU talabasi - Xamrayeva Sarvinoz

Ilmiy rahbar: Xidirova Iroda

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘zbek leksikografiyasi fanida o‘rganilgan lug‘atlarda keltirilgan antroponimlar (kishi nomlari) ni o‘rganish va ularning ma‘nolari haqida.

Kalit so‘z: Antroponomika, antroponimlar, kishi nomlari, ismlar, “Devonu lug‘otit turk“ asari, “Kelurnoma“ lug‘ati, “древнетюркская словарь“.

Qadimdan bolaga ism qo‘yishni xalqimiz katta mas‘uliyat deb bilishgan. Ism qo‘yilish, shak-shubhasiz milliylik, etika va estetika qoidalari, shaxsning orzu-istaklari, dunyoqarashi va tasavvuri bilan bog‘liq. Har bir ism ham bejiz vujudga kelmaganki, u o‘zining tarixi, hududi, mazmuni va geografik tarqalishiga ham ega bo‘lmasa. Ism qo‘yishning qadimiy udumlari, rasm-rusumlari hozirgi kunda ham saqlanib kelinmoqda, chunki ism bolaning kelgusi baxti va hayoti, salomatligi, kelajagi, taqdiriga ta‘sir ko‘rsatishiga ishonishgan. Dinda ham ism odamning ruhiyatini o‘zida mujassam qilishi mbayon etilgan, shuning uchun ham nafaqat musulmon oilalarida, balki barcha dinlarda ham nom berish marosimi alohida e‘tiborga molik mas‘uliyat deb yondashilgan. Bir qancha huquqiy munosabatlarda ham ismning o‘z ahamiyati bor. Insonning ismi, uni boshqa shaxslardan ajratishga, farqlashga xizmat qilib, hayoti davomida unga har jihatdan ta‘sir qilishi mumkin.

O‘zbek tili lug‘at boyligining kattagina qismini insonlarga qo‘yiluvchi maxsus nomlar tashkil qiladi. Kishilarning atoqli otlari fanda antroponimlar deb yuritiladi.

”Antroponim”, deb yozadi A.Hojiyev-“antroposodam,+onyma-nom, kishining atoqli oti,nom”.Antroponomika-yunoncha ‘antros’-shaxs’ va ‘onoma’-ism so‘zidan olingan bo‘lib, leksikologiyaning (onomastikaning) kishi otlarini (nomlarini) o‘rganuvchi bo‘limi. Antroponomika nutqda antroponimning vazifasini aniqlab, insonning jamiyatga kirishi, boshqa e‘tiqodga o‘tishi, yoshi, ijtimoiy yoki oilaviy ahvolining o‘zgarishi, boshqa millatdagi odamlarning hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan farqlash, aniqlash, ismlarning o‘zgartirishi, ularning kelib chiqishi, jamiyatda amalda qo‘llanilishi, faoliyat ko‘rsatish qonuniyatlari, antroponomik tizimlar tuzilishi va rivojlanishi antroponomikaning tarkibiy qismidir.

Antroponimiya- tilda mavjud bo‘lgan barcha kishilar atoqli otlari majmuidir. Ilgari antroponimiya o‘rnida “onomastika” atamasi qo‘llanilgan va keyinchalik 1960-1970 yillarda bu so‘z vujudga kelgan. Bu fan ismga oid bo‘lgan ma‘lumotlar, ya‘ni insonning urug‘-aymog‘i, otasi, millati, kelib chiqishi va insoniy fazilatlarini tahlil

qiladi. Demak, antroponim bu har qanday atab qo'yilgan shaxsni chaqiradigan unga aloqador bo'lgan ismdir.

Antroponimlarga Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asaridan quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Masalan:

"Devonu lug'otit turk" 1-jild.

Отамйш: - erkaklar otidan(122)

Кўмўш - cho'ri nomlaridan(352)

Күмүк - beklardan bir kishining ismi(365)

Қабан - erlar ismidan(392)

Қотан - erlar ismi(392)

Чуғлән - Qarluq kattalarining ismlaridan(415)

Бёклән - erlar ismi(415)

Бектўр - erkaklar oti. Asli bek tur "doim o'ringda tur; ko'p yasha" demakdir.

Сөкмән - Paxlavonlarga beriluvchi laqab, jang saflarini sindiruvchidir(415)

Сўли - qullarga beriladigan otlardan. Bu so'z Süläymän so'zining qisqargani kabidir.(421)

Будрач - Yabaqular kattasining ismi(422)

Тулумлуғ эр - boshdan oyoq qurollangan kishi(458)

Қатмйш - erlar ismi(397)

Қулбақ - Turklardan bir taqvodor kishi ismi, u Bolasog'un tog'larida yashar edi. Aytishlaricha, u qo'li bilan katta qora toshga "Tangri quli Qulbaq" deb yozsa oq xat yozilar, agar oq toshga yozsa qora xat paydo bo'lar edi(401)

Сәлжўк - o'sha vaqtdagi sultonlar bobosining ismi(442)

Қалалдуруқ - erlarning ismlaridan(482)

Бадруқ - erlar ismi(433)

Булғақ - erkaklar oti.

Байат - tangri taoloning oti(Arg'ular tilida)

Тутуш - kishi oti(127)

Тўрк - Tangri yorlaqagur. Nux(a.s)ning o'g'lini oti.(333)

Булуч - erkaklar oti(339)

Тоқйш - kishi ismi(349)

Їава - yoshlarga beriladigan ismlardan.

Тәкйш - erlar oti(349)

"Devonu lug'otit turk" 3-jild.

Қаз - Afrosiyob qizining nomi. Qazvin shahrini shu qurgandir. Bu so'zning asli "qaz o'yni" g'oz o'ynaladiga joy demakdir.

Malik so'zi shoh ma'nosida keladi va u arabcha elchilik ma'nosini bildiradi. Turkiy qabilalar esa Malik so'zini mutlaqo bilmaydilar deb aytadi Mahmud Koshg'ariy.

“Kelurnoma“ lug‘atida keltirilgan kishi nomlari:

Алп - qahramon (98)

Дадак - keksa xizmatkor(111)

Бузафар - Aurangzeb nomi(111)

Жамшид - fors podshohi (112)

Йаъқуб - muallif nomi(112)

Мустафā - tanlangan, “Muhammad“ epiteti. (112)

Муҳиддин - Aurangzeb nomi(112) kabi kishi nomlarini ko‘rib o‘tishimiz mumkin. “At tuhfat“ lug‘atida asosan fe‘llar keltirilgan. “Kelurnoma“ lug‘atida podshohlar va ularning atrofidagi odamlarning ismlari keltirilgan. “Devonu lug‘otit turk“ asarida esa o‘sha davrda yashagan kishilarning, asosan, erkaklarning ismi keltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk“ asari
2. Muhammad Yaqub Chingiyning “Kelurnoma“ lug‘ati
3. Navbahor Nazarova “Antroponimlarning o‘rganilishi“
4. [www.ziyonet sayti](http://www.ziyonet.com) .
5. [www.arxivuz sayti](http://www.arxivuz.com).